

IMOM AL-BUXORIY TA'LIMOTINING O'QUVCHILAR TARBIYASIDAGI O'RNI

*Department of "Social Sciences" of the Tashkent Institute of Finance
independent researcher*

Dilmurodov Farrukh Rustam oglu

Annotatsiya: *Maqolada Imom Al-Buxoriy ta'limotining o'quvchilarni tarbiyalashdagi o'rni hamda ahamiyatiga qaratilgan ilmiy-nazariy fikr-mulohazalar keltirilgan. Xususan, bugungi tarbiyaning muhim jihatlarida Imom Al-Buxoriyning ta'limotining hissasi borligini ham keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Imom Al-Buxoriy, ta'limot, o'quvchilar, tarbiya, ilmiy-nazariy fikr-mulohazalar.*

Yoshlar tarbiyasida buyuk muhaddis Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriyning sahih hadislarini o'quvchilar tarbiyasida eng muhim manbaa bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga kelajak avlodda ma'rifatli, bilimli, zakovatli, aqlli va idrokli, baxtli va saodatli, odob-axloqli, pok hamda iffatli, sabr matonatli bo'lib ulg'ayish tuyg'ulari shakllanib boradi. Imom al-Buxoriy hadislarida axloq masalasiga alohida e'tibor berilgan. Shuningdek, hadisi Sharifda «Ilm olmoqqa intilish har bir muslim va muslima uchun farzdir» deyiladi.

Imom al-Buxoriy hadis sultoni 810 yilda Buxoroda tavallud topgan. 10 yoshida boshlab hadislarini yod olib va butun umrini hadis olamiga bag'ishlagan. Mutafakkir hadis ilmi va uning turli tarmoqlarini to'liq o'rganish, hadislarini to'plash maqsadida Hijoz, Misr, Iroq, Xuroson va boshqa shaharlarda yashab inson ma'naviy olami uchun qadri bo'lgan hadislarini to'plagan.

Imom al-Buxoriy yozgan asarlari sarasiga "Al-Jomi' as-sahih" ("Sahihi Buxoriy"), "Al-adab ul-mufrad" ("Adab durdonalari"), "at-Tarix va al-kabir" (Katta tarix), "Kitob asmo' as-sahoba" ("Sahobalar ismlari kitobi"), "at-Tarix al-avsat" (O'rtacha tarix), "at-Tarix as - sag'ir" (Kichik tarix), "Kitob ar-rifoq" (Nafosat haqida kitob), "Bir al-volidayn" (Ota – ona hurmati), "al-Adab al-mufrad" (Axloq – odob haqidagi hadislar to'plami) va boshqalarni kiritish mumkin. Imom al – Buxoriyning yigirmadan ortiq asarlari hadis ilmining turli sohalarini bo'yicha yozilgan bo'lib, ularning har biri o'ziga xos tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Imom Buxoriy hadislaridan: "Insonlarga yomonlik qilishdan uzoq tur. Zero bu o'zingga sadaqadir". Ya'ni, boshqalarga foydasi tegadigan odam eng yaxshi insondir. Islom insonning manman, xudbin bo'lib, faqat o'z manfaatini o'ylab, ish tutishini ma'qul ko'rmaydi. Alloh boshqalar uchun fidoyi, samimiy va hojatbaror bandalarini qadrlaydi.

Demak, hadisning mohiyati shunga qaratilganki, odamlar bir – biriga faqatgina moddiy narsalar bilan yordam berish emas, balki moddiy va ma'naviy imkoniyatiga

qarab muhtojlarga yordam berishi, imkoniyati bo'lmaganida esa birovlariga umuman yomonlik qilmaslik bilan ham birovlariga yaxshilik qilishi e'tirof etilgan.

Albatta, alloma yaxshi amallarni har kishi o'zidan, oilasidan va qarindosh – urug'laridan, so'ngra esa qo'ni – qo'shnisidan boshlashi lozimligini uqtirib o'tadi. "Oltin Silsila. Sahihul Buxoriy" asarining birinchi juz'ida, "Qo'li va tilidan musulmonlar omonda bo'lgan kishi(ning amali)",

سَلِمَ مَهْ «وَيَدِي َلَسَاوْ مَه َنَ الْمَسَلْمُو

degan hadis kiritilgan. Albatta, insonlar o'rtasidagi munosabatlarda qo'l bilan til a'zolari asosiy vazifani bajaradi. Shu asarning ettinchi bobida "O'zi uchun yaxshi ko'rgan narsasini birodariga ham ravo ko'rmaguncha mo'min bo'la olmaydi",

أُوْهُ مِ يُوْالِ لَى َوُّب ِح ِي مَا الْخِي َوُّب ِح ِي حَتَّى َحَدُّكُمْ - ِس ُف

deydilar. Bu bilan mutafakkir insonlarni doimo yaxshilikka, ezgu ishlarga da'vat qiladi.

Davlatimiz rahbari tomonidan ishlab chiqilgan "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot startegiyasi" to'g'risidagi farmonida[5] belgilangan (7 ta ustivor yo'nalish), "Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash, ushbu sohani tubdan isloh etish va yangi bosqichga olib chiqish" yo'nalishida, "Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o'rganish va targ'ib etish" maqsadga muvofiqligi, dunyoning nufuzli xalqaro tashkilotlari va ilmiy tadqiqot markazlari, universitetlar bilan hamkorlikda, buyuk ajdodlarimizning boy – ilmiy – ma'naviy merosini keng o'rganish hamda targ'ib qilishga katta e'tibor qaratilayotganligi diqqatga sazovordir.

Bunda asosan, Imom Buxoriy ta'limotlarni o'rganish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida Yangi O'zbekiston yoshlarining ma'naviy barkamol jihatdan kamolotga erishishlari, egallagan bilim va malakalarni o'z faoliyatlarida, jamiyatimiz taraqqiyoti yo'lida to'la namoyon etish imkoniyatiga ega bo'ladigan darajada tarbiyalash muhim vazifalardandir.

REFERENCES:

1. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" T.: Davlat ilmiy nashiryoti, 2003.
2. Shovosil ZIYODOV, Jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashishning samarali modeli.
3. Bobomurod ogli, O.B., & Abdulla ogli, J. B. (2023). IMOM AL BUXORIYNING HADISLARINI YOSHLAR TARBIYASIDA TUTGAN O'RNINI
4. Алимов У. Қуръони Каримдан кейинги иккинчи муқаддас китоб. Имом ал-Бухорий сабоқлари. Тошкент. 2009. Б. 7.
5. Orifbekovna, S. L., & Muzaffarovna, M. Z. (2022). MUHADDIS MUHAMMAD IBN ISMOIL AL-BUXORIY ASARLARIDA HADIS ILMINING ORNI. Journal of new century innovations, 17(2), 51-55